



Andijon shahar xalq ta'limi bo'limining buyrug'i

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 2022 yil 1-avgustdagi "2022-2023-o'quv yili "Ustozlar Milliy forumi"ga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish to'g'risida"gi 250-sonli hamda Andijon viloyati xalq ta'limi boshqarmasining 2022 yil 8 avgustdagi 84-sonli buyruqlarining ijrosini ta'minlash maqsadida

BUYURAMAN

1. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 2022 yil 1-avgustdagi 250-sonli hamda Andijon viloyati xalq ta'limi boshqarmasining 2022 yil 8 avgustdagi 84-sonli buyruqlari rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.
2. 2022-2023-o'quv yili "Ustozlar Milliy forumi" quyidagi muddatlarda;
Respublika forumi joriy yilning 10-11-avgust kunlari;
Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahar va barcha viloyatlarda 16-18-avgust kunlari;
Shaharda fan yo'nalishlari bo'yicha sho'ba yig'ilishlari 23-26-avgust kunlari;
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida pedagogik kengashlar tarzida 27-29-avgust kunlari tashkil etilishi inobatga olinsin.
3. Quyidagilar:
Forumga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bo'yicha shahar ishchi gurahi tarkibi 1-ilovaga muvofiq;
Forum dasturi 2-ilovaga, o'tkazilish joyi va muddatlari 3-ilovaga, Forumni o'tkazilishi bo'yicha sarf-xarajatlar smetasi 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
4. Shahar ishchi guruh (A.Usmonov)ga belgilangan vazifalarning ko'rsatilgan muddatlarda sifatli bajarilishini ta'minlash topshirilsin.
5. O'quv tarbiya jarayonini metodik ta'minlash kichik guruh rahbari(L.Abduraximova)ga:
Forum ishtirokchilari ro'yxatini shakllantirish va ularning ishtirokini ta'minlash;
Forum dasturi asosida taqdimotlar, tarqatma materiallarini tayyorlash va joriy yilning 23-avgust kuniga qadar ishchi guruxga taqdim qilish;
Shahar sho'ba yig'ilishlar jadvali, o'tkazilish joyi, dasturi va ishtirokchilar tarkibini shahar kesimida shakllantirish.
Barcha fan metodistlarini maktablarda o'tkaziladigan o'quv seminarlarni sifatli o'tkazilishi bo'yicha vazifalar yuklatilsin.
6. O'qituvchilar "Milliy forum" ning shahar bosqichi va yalpi yig'ilish o'tkaziladigan maktablar direktorlariga 23-27 avgust kunlariga puxta tayyorlash va AKT jixozlar bilan ta'minlash choralarini ko'rish vazifalari yuklatilsin.
7. Barcha umumiy o'rta ta'lim maktablari direktorlariga:
Ahhahar forumining yalpi yig'ilishida ishtirok etadigan fan o'qituvchilarini belgilangan muddatlarda umumta'lim maktablariga etib borishlarini ta'minlash;
Forumning shahar sho'ba yig'ilishlari va yalpi yig'ilishlar hamda umumiy o'rta ta'lim muassasalaridagi Pedagogik kengashlarini o'tkazishda sanitariya qoidalariga qat'iy rioya qilgan holda o'tkazilishi bo'yicha javobgar etib belgilash;
O'quv- seminar mashg'ulotlarini o'tkazish jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishni tashkil etish vazifalari yuklatilsin.

8. Buxgalteriya xisobi va davlat haridlari bo'limi(D.Xojiyev)ga "Ustozlar milliy forumini" o'tkazish bilan bog'liq sarf-xarajatlarni shu maqsadlar uchun ajratilgan mablag'lar xisobidan qoplanishini ta'minlansin;
9. Matbuot kotibi (D.Sotvoldiyev)ga forum jarayoni va sho'ba yig'ilishlarini ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda hamda XTBning rasmiy veb-sayti va kanalida keng yoritish choralari ko'rish yuklatilsin.
10. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilish, mudir o'rinbosari (A.Usmonov) zimmasiga yuklatilsin



Andijon shahar xalq ta'limi bo'limi mudiri **Abduraxmonova**

Andijon shahri	Lavozimi
"12" 08. 2022 yil	Bo'lim mudiri, mas'uliy qo'liga olib
"05-1-22"-sonli	Bo'lim mudiri o'rinbosari, mas'ul o'rinbosari
3 Z.Siddiqov	Ma'naviyat va axborot, bo'yicha mas'ul o'rinbosari, a'zo
4 S.Bog'atov	Ta'lim muassasalarini ta'limni oshirish bo'yicha mas'ul o'rinbosari, a'zo
5 N.Raxmatov	Monitoring, guruhlari rahbari o'rinbosari
6 L.Abduraxmonova	Metodist mas'ul koshibi
7 R.Qadriyeva	Metodist, a'zo
8 M.Bog'atov	Metodist, a'zo
9 M.G'afurov	Metodist, a'zo
10 A.Hajiyev	Metodist, a'zo
11 G.L.Usmonov	Metodist, a'zo
12 A.Qo'limurov	Metodist, a'zo
13 D.Sotvoldiyev	Metodist, a'zo
14 D.Xojiyev	Metodist, a'zo

Andijon shahar XTBning
“12” 08. 2022 yildagi
№ 05-1/22 -sonli
buyrug'iga 3-ilova

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 2022 yil 1-avgustdagi “2022-2023-o'quv yili “Ustozlar Milliy forumi”ga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish to'g'risida”gi 250-sonli buyrug'ini Andijon shahar xalq ta'limi bo'limiga qarashli umumiy o'rta ta'lim maktablari pedagoglari ishtirokida o'tkazilyotgan yalpi yig'ilish o'tkazilishi joyi va muddati

№	Joyi	Muddati va vaqti
1.	18-maktab	26 avgust soat 18.00

Andijon shahar XTBning
“12” 08. 2022 yildagi
№ 05-1/22 -sonli
buyrug'iga 4-ilova

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 2022 yil 1-avgustdagi “2022-2023-o'quv yili “Ustozlar Milliy forumi”ga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish to'g'risida”gi 250-sonli buyrug'ini Andijon shahar xalq ta'limi bo'limiga qarashli umumiy o'rta ta'lim maktablari pedagoglari ishtirokida o'tkazilyotgan yalpi yig'ilish o'tkazilishi bilan bog'liq sarf-xarajatlarni

SMETASI

№	Sarf xarajatlar nomi	Jami sarf qilingan summa
1.	“Milliy forum” ishtirokchilari bo'lgan maktab direktorlari uchun	39200000 (o'ttiz toqqiz million ikki yuz ming so'm)

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RSIDA
HUQUQIY XULOSA**

1. Loyihaning turi:

Shartnoma.

2. Loyihaning nomi:

Oldi-sotdi shartnomasi tuzish to'g'risida.

Andijon shahar Xalq ta'limi bo'limi bilan **“PREMIUM TEXNO
MEBEL” MChJ** o'rtasida Andijon shahar Xalq ta'limi bo'limi tasarrufidagi umumiy o'rta ta'lim maktablariga sovg'a sotib olish yuzasidan O'zbekiston Respublikasining 22.04.2021-yildagi “Davlat xaridlari to'g'risida”gi 684-sonli qonunining 56-63-moddalariga asosan, eng yaxshi taklifni tanlash ta'moyili asosida tanlangan bilan **39 200 000 (o'ttiz to'qqiz million ikki yuz ming)** so'mga tuzilayotgan shartnomasi loyihasi.

Asos: 22.04.2021-yildagi “Davlat xaridlari to'g'risida”gi 684-sonli qonunining 56-63-moddalari, 13.09.2022-yil kungi 146140-sonli lot bo'yicha elektron g'oliblik bayonnomasi.

3. Loyiha ishlab chiquvchisi:

Andijon shahar Xalq ta'limi bo'limi.

Shartnoma loyihasini o'rganish yuzasidan,

XULOSA

Shartnoma loyihasi amaldagi O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi va O'zbekiston Respublikasining 29.08.1998-yildagi “Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatining shartnomaviy xuquqiy bazasi to'g'risida”gi qonuni talablariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Shartnoma yuzasidan kelib chiqadigan oqibatlariga bosh yuristkonsult javobgar emas.

**Andijon shahar yuridik xizmat
ko'rsatish markazi bosh yuristkonsulti:**



F.Mamajonov

20.09.2022-yil.

Ўз низомига асосан фаолият юритувчи "**PREMIUM TEXNO MEVEL**" МЧЖ бундан буён "Сотувчи" деб юритилади, унинг номидан раҳбари **З.Мадрахимов** бир томондан ва **Анджон шаҳар халқ таълими** номидан унинг раҳбари **Н.С.Абдурахманова** иккинчи томондан бундан буён "Харидор" деб юритилади куйдаги мазмунда шартнома туздиқ:

1. Шартнома предмети

"Сотувчи" ўзига тегишли бўлган ва келишилган куйидаги молларни етказиб беради, "Харидор" эса ушбу молларни қабул қилиб олиб ҳисоб китоб қилади.

№	МАХСУЛОТ НОМИ	Ўлчов бирлиги	Сони	Нархи	Етказиб бериш қиймати	ККС		Етказиб беришнинг ККС ҳисобга олган қиймати
						Ставка	Сумма	
	Лампа	Шт	56	608695,65	34086956,40	15	511343,60	39 200 000
	Жами:							39200000

Шартноманинг умумий суммаси: 39 200 000 (Уттиз туккиз миллион икки юз минг) сўмни ташкил этади.

2. Шартнома киймати ва ҳисоб – китоб тартиби

- 2.1. Ҳисоб китоб «Харидор» томонидан пул ўтказиш йўли билан амалга оширилади.
- 2.2. Шартнома кучга кириб, рўйхатдан ўтгандан сўнг 5 банк иш кунида "Харидор" етказиб бериладиган ёки ҳизматнинг умумий суммасининг 30% ини олдиндан аванс тариқасида «Сотувчи» нинг ҳисоб рақамига ўтказиб беради.
- 2.3. Қолган 70% изи ёки "Сотувчи" томонидан мазкур шартномада кўрсатилган миқдорда ва нархларда давлат стандартлари талабларига жавоб берадиган ҳизмат бажарилганидан сўнг 10 банк иш кунни давомида ҳисоб-варақ фактура асосида ўтказиб беради.
- 2.4 «Сотувчи" ҳизматларини 5кун давомида тўлик "Харидор"га топшириб беради.

3. Томонларнинг ҳуқуқ ва мажбуриятлари.

- 3.1. Томонлар бошқа томоннинг ҳужжатини расмийлаштирмаслиги ёки нотўғри расмийлаштириш учун жавобгар емасдирлар.
- 3.2 «Сотувчи» ҳуқуқлари ва мажбуриятлари:
 - Берилган буюртмага мувофиқ етказиб берилган «товар (маҳсулот)»ни қабул қилиш асосиз рад этилиши натижасида етказилган зарарқопланишини талаб қилиш ҳуқуқига эга.
 - Камчиликларни бепул бартараф этилишини ёки камчиликлар "Харидор"ёки учинчи шахслар томонидан тўғирланишини харажатларини қопланишини талаб қилишга;
 - Мазкур шартнома шартлари бажарилмаслиги натижасида етказилган зарарни қопланишини "Сотувчи"дан талаб қилиш ҳуқуқига эга.

4. Томонларнинг жавобгарлиги.

- 4.1 "Товар(маҳсулот)"ни белгиланган вақтида етказиб бермаганлиги учун "Сотувчи" "Харидор"га ўтиб кетган муддатнинг хар бир банк кунни учун етказиб берилмаган маҳсулотларнинг қийматидан 0.01 % миқдорда, лекин шартноманинг 1 % дан ортмаган миқдорда жарима тўлайди.
- 4.2 "Товар(маҳсулот)"ни етказиб бериш кечиктирилган ёки тўлик етказиб берилмаган такбирдирда "Сотувчи" "Харидор"га кечиктирилган хар бир кун учун мажбурий бажарилмаган қисмининг 0.05 % миқдорда пеня тўлайди. Бирок бунда пенянинг умумий суммаси етказиб берилмаган "товар" (маҳсулот) қийматининг 5 % дан ортик бўлмаслиги керак.
- 4.3 Етказиб берилган "Товар" (маҳсулот) учун ўз вақтида ҳақ тўламаганда "Харидор" "Сотувчи"га муддати кечиктирилган хар бир кун учун кечиктирилган тўлов суммасининг 0.5 % миқдорда пеня тўлайди, бироқ бу кечиктирилган тўлов суммасининг 5 % дан ортик бўлмаслиги керак.

5. Низомларни хал этиш тартиблари

- 5.1 Келишмовчиликлар ва низоли масалалар келиб чиққан тақдирда, томонлар, қоидага кўра, мустақил равишда улар судга ҳал этиш қораларини кўрадилар.
- 5.2 Келишув билан хал қилинмайдиган низолар Ўзбекистон Республикаси қонунчилигига асосан белгиланган тартибда хал қилинади.